

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SULOLASINING MA'NAVIYATIMIZ RIVOJIDAGI ROLI

Mamatqulova Ozoda Xikmat qizi
TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar sulolasi hukmronligi davrida mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar, ularning ko'lami hamda bugungi kun uchun nechog'lik muhim ekanligi va ularning ma'naviyatimiz rivojidagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli tavsiya va xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: adolat, barkamol inson, yoshlar, ma'naviyat, ilm-fan, madaniyat, Buyuk ipak yo'li, ma'naviy meros, san'at, adabiyot, an'ana, ma'rifat, din, odob, axloq.

АМИР ТИМУР И НАША ДУХОВНОСТЬ ДИНАСТИИ ТЕМУРИАТОВ РОЛЬ В РАЗВИТИИ

Mamatkulova Ozoda
Преподаватель кафедры "Общественные науки" ТДПУ

Аннотация: В данной статье освещены реформы, проведенные в стране в период правления Амира Темура и династии Тимуридов, их масштаб и значение на сегодняшний день, их значение в развитии нашей духовности. Также по данной теме даны соответствующие рекомендации и выводы.

Ключевые слова: справедливость, совершенный человек, молодость, духовность, наука, культура, Великий шелковый путь, духовное наследие, искусство, литература, традиция, просвещение, религия, нравы, этика.

AMIR TIMUR AND OUR SPIRITUALITY OF THE TEMURIAN DYNASTY ROLE IN THE DEVELOPMENT

Mamatkulova Ozoda
Teacher of the "Social Sciences" department of TDPU

Abstract: In this article, the reforms carried out in the country during the reign of Amir Temur and the Timurid dynasty, their scope, and how important they are for today, and their significance in the development of our spirituality, are explained. Also, relevant recommendations and conclusions are given on this topic.

Keywords: justice, perfect person, youth, spirituality, science, culture, Great Silk Road, spiritual heritage, art, literature, tradition, enlightenment, religion, manners, moralit.

Rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati jamiyat tarraqiyotining barcha davrlarida insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Qayerda ma'naviy rivojlanish yuksak bo'lsa, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu yerda jamiyat ijtimoiy adolat mezonini asosida tez taraqqiy qilganligi tarixdan ma'lum. Hayotimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. SHu boisdan ham, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi biz uchun muhim masalaga aylandi¹.

Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi hisoblanadi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o'g'il-qizimiz daslabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak. Bu borada yoshlarda yuksak ma'naviy tuyg'ularni shakllantirishda tarixda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning ham o'rni beqiyosdir. Zero, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"². Bu borada, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyo madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida shunday degan edi: "Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!"³

Aslida ham Sohibqiron Amir Temur – xalqimizning abadiy faxri va g'ururidir. U Turonzaminni mo'g'ullar istilosi asoratidan ozod etdi, mamlakat va xalq daxlsizligi, tinchligi va osoyishtaligini, obodlik va farovonlikda rivojlanishini to'liq va ishonchli kafolatlay oladigan markazlashgan qudratli davlatni vujudga keltirdi. Uning sa'y-u harakatlari bilan bu yerda hayot har taraflama gullab-yashnadi. Ayniqsa, bu ulug' zotning ilm-u fan, kasb-u hunar, madaniyat va san'at, din-u diyonat homiysi sifatida

¹ N.Nosirxo'jayev va boshqalar "Ma'naviyat asoslari" T. "Turon iqbol" 2007 y

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan // Xalq so'zi 2017-yil 4-avgust.

³ Каримов И. А. Амир Темур ҳақида сўз. / Асарлар 5-жилд . –Т.:Ўзбекистон-1997, 27-бет.

amalga oshirgan ishlari bugun ham barchamiz uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz”⁴.

Bir so‘z bilan aytganda, Amir Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyoda markazlashgan davlat tashkil qilishda, ma‘rifat ishlarini rivojlantirishda katta rol o‘ynadi.⁵

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta‘limga e‘tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta‘lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildi. Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o‘lkasida maorif va ta‘lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o‘rin tutgan. Qudratli saltanat va ma‘rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an‘analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur. har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta‘lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta‘lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmli, ma‘rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish yo‘lidan bordi.

Ta‘limga e‘tibor, ilm fanga homiylik Amir Temur va temuriylar davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi. Sohibqironning saltanat ma‘murlari oldiga *“Katta kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar”*; *“Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar”*; *“Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug‘larni aziz tutsinlar”*⁶, degan vazifani qo‘yganligi *“Temur tuzuklari”*da ham aks etgan.

Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida ta‘lim tizimini yuksak darajada rivojlantirish, O‘zbekistonda uchinchi renessans davrini yaratadigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Xalq ta‘limi sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha belgilagan vazifalarida ham yaqqol bayon etib berildi. Bu vazifalarni hayotga tatbiq etishda Amir Temur va temuriylar davri ta‘lim tizimini chuqur o‘rganish va tarixiy tajribalardan zamonaviy asosda foydalanish ham amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Temur va Temuriylar davri, umuman Sharq, xususan, Markaziy Osiyo ilm-fani, madaniyati, ma‘naviyati, adabiyot va san‘ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Bu davrdagi ma‘naviy-ma‘rifiy hayotdagi ko‘tarilish va yuksalishining manbai, boshlanishi IX-XII asrlarga borib taqaladi. XIV asrning

⁴ Каримов И.А. Шарқ гавҳари, замин сайқали. /Жамиятимизни эркинлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т.: Ўзбекистон, 2007, 307- бет.

⁵ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихидаги ўрни ва роли ҳақида. Т., 1960, 14 б.

⁶ Темур тузуклари. – Т.:Ўзбекистон, 2013, 90-бет.

ikkinchi yarmi va XV asrdagi Markaziy Osiyoning madaniy, ma'naviy va ma'rifiy kamoloti IX-XII asr madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatining davomidir. Markaziy Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi xuddi shu davrda shakllandi va ijod etdi. Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlar - Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumi; faylasuf shoirlar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy; musavvirlar – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh; xattotlar – Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning hammasi o'sha davr va o'zlarigacha bo'lgan insoniyat ma'naviyati, ma'rifati va madaniyati yutug'ining barcha sohalarini mukammal bilib va o'zlashtirib olgan, o'zlari tanlagan sohalarning hali hech kim tomonidan zabt etilmagan cho'qqilarini egallagan ulug' siymolar, qomusiy ilm, aql egalari bo'lganlar.

Amir Temur va Temuriylar sulolasi ma'naviy merosining bugungi kunda yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir. Temur davridan boshlab Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, san'at va adabiyot rivoj topa boshladi. Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, iqtisodning yaxshilanishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga e'tibor berilishi, irrigatsiya inshootlari qurilishi, kanallar o'tkazilishi va nihoyat, aholining turmush darajasi oldingi davrlarga nisbatan birmuncha ko'tarilishi ilm-fanning turli sohalarining ravnaq topishiga va ulkan mutafakkirlar guruhi yetishib chiqishiga sabab bo'ldi. Temur saltanati davridan boshlab hisob, handasa, falakiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jug'rofiya, tibbiyot, san'at va adabiyot tez taraqqiy eta boshladi. XIV-XV asrlarda Movarounnahrda ilm-fanning yuksak cho'qqiga ko'tarilishida Sohibqiron Temurning xizmati beqiyosdir. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi Movarounnahrda fan va madaniyat, ma'rifat ravnaq topishiga yo'l ochgan. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning o'nlab shaharlaridan Samarqandga ko'plab hunarmandlar, olimlar, san'atkorlar, muhandislar taklif qilingan. Samarqand va Hirotida madrasalar, kutubxonalar va rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, geografiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid yuzlab ajoyib asarlar yaratildi. Temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlari ilm-ma'rifat, madaniyat markaziga aylandi. Shohizinda, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim Jome masjidi, Registon maydoni va shu singari ko'plab madrasa va masjidlar bunyod etildi. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoya katta.

Amir Temurning farzandlari-yu nabiraloriga qilgan o'g'itlari va yo'l-yo'riqlariga uning o'zi umrbod qat'iy amal qilgan. Jamiyatda ijtimoiy adolat tantanasi uchun kurashda ikkilanish, chekinish nimaligini aslo bilmagan. U kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini chuqur anglab etdi. Adolatni kuch

bilan, kuchni esa adolat bilan uyg'unlashtirdi. Temur tamg'asining naqshi "Rostirusti" bo'lib, bu "Haqgo'y bo'lsang – najot topasan", demakdir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat rivojlanib, o'ziga xos renessans vujudga keldi. Amir Temur o'zi vujudga keltirgan ulkan davlat hududidagi barcha xalqlarning madaniyatini yagona bir tizimga birlashtiradi. Islom olamining kattagina qismi moddiy va ma'naviy hayotida to'siq bo'lib turgan barcha g'ovlarni ko'tarib tashlaydi. Umumislom e'tiqodiga asoslangan turli etnik birliklarning ma'naviy qadriyatlarini umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar darajasiga ko'tara oladi. Amir Temur davrida yagona siyosiy boshqaruvga ega bo'lgan buyuk imperiya boshqa qo'shni davlatlar madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Sohibqiron o'zining yetuk siyosatdonligi, ilm-fan va adabiyot namoyandalariga ko'rsagan g'amxo'rliqi bilan mo'g'ul bosqinchilari tomonidan yakson etilgan Markaziy Osiyoning ilk Uyg'onish davri madaniyatini qaytadan tiklaydi. Ularning buyuk bunyodkorlik salohiyati, imon-e'tiqodi, ajdodlar an'alariga sodiqligini yana bir bor namoyish etadi. Buyuk va qudratli turkiy urug'larning boshini bir yerga birlashtirib, jahon davlatchiligi tarixidan munosib va mustahkam joy egallashlariga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan// "Xalq so'zi". 2017 yil 4-avgust.
2. Каримов И. А. Амир Темур ҳақида сўз./ Асарлар 5-жилд . –Т.:Ўзбекистон-1997, 27-бет.
3. Каримов И.А. Шарқ гавҳари, замин сайқали. /Жамиятимизни эркинлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т.: Ўзбекистон, 2007, 307- бет.
4. Темур тузуклари. – Т.:Ўзбекистон, 2013, 90-бет.
5. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихидаги ўрни ва роли ҳақида. Т., 1960, 14 б.
6. N.Nosirxo'jayev va boshqalar "Ma'naviyat asoslari"Т."Turon iqbol". 2007 y
7. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." Т.: Fan va texnologiya 288 (2008).
8. Ибраимов Х. И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога //Наука, образование и культура. – 2018. – №. 3 (27). – С. 44-46.
9. Ibragimovich X. I. O 'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – С. 209-214.

10. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." *International journal of discourse on innovation, integration and education* 1 (2020): 6-15.
11. Abdullaeva, B. S., Sobirova, M. A., Abduganiev, O. T., & Abdullaev, D. N. (2020). The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2706-2714.
12. Oglu, Abduganiev Ozod Tursunboy. "Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students." *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education* 12, no. 7 (2021): 433-442.
13. Abduganiyev, O. T. (2022, December). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS. In *E Conference Zone* (pp. 10-13).
14. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency // *Eastern European Scientific Journal*. – 2019. – №. 1.